

This is not registered version of TotalDocConverter

Bif poraxo phaqing, yana bosqich qanda so'lg' uchinchi kuni har doim salom bersam arang boshini qimirlatib qo'yadigan o'o'dayganov ertalabdan yuzlaridan tabassum yog'ilib, pirini ko'rgan muridday yugurib kelib ikki qo'llab ko'rishdi. Uzundan uzoq sog'lig'imni, ishlarimni, uy ichdagilarni so'rab bo'lгach, dedi:

- Voy, siz "molodes ey. Boplabsiz-ku, boplabsiz. Qoyil. Qani endi, yuvmaymizmi hajviyani. Gonorari qancha, gonorari?!"...
- Ha, yuvsak yuvamiz-da. Gonorari kelsinchi, - deb qo'ydim. U qo'Itig'imdan olib idora ichkarisiga yurar ekanmiz, sekingina so'radi:
- Komilov. Bu, haligi qurug'idan bo'lsin degan gap butun respublika bo'ylab tarqalgan gap. Buni aslida anovi Ergash Karimovga o'xshaganlar chiqargan. Ha, endi men ham hazillashib aytib yurardim-da. Tag'in... Men emasmi o'sha?
- Men kulib yubordim. U bir qizardi, bir bo'zardi.
- Yo'q, yo'q. Siz emas. Har qalay ayanan siz emas...
- Xax-xax-xa-xa.. - U birdan yosh bolalardek quvonib, qattiq kulib yubordi - o'zim ham biluvdim-a... Lekin rosa boplabsiz. Ofarin...

Keyin asta shivirladi:

- Kim o'zi o'sha?...
- Buni endi sir. Gap egasini topadi...
- Tushlik oldidan qo'shni bo'lim mudiri kirib keldi va qo'limni qisdi.
- Tabriklaymiz. Boplabsiz. Obbo, siz-ey, Komilov. Bunaqa hunar ham bor ekanda, a? Siz chatoq, chatoq... Ishqilib, men emasmi? ... - dedi kula-kula.
- Yo'q. Siz emassiz, - dedim men ham kula-kula.

Tushlikda oshxonada ovqatlanib o'tirsam, yana bir hamkasbim oldimdag'i bo'sh stulga ohista cho'kdi va hadiksirab dedi:

- Komilov, anovi "qorni katta, kichkina kabinetda deganlaringiz... Ishqilib..."
- Yo'q, yo'q. Siz emas.

Idora koridoridan ketayotsam, bo'lim boshliqlaridan biri yo'limni to'sdi:

- Komilovich, jo'rajon. Bu haligi "burni uzun, qulog'i supradek depsiz. Xudo bergan qusurlar bizda ham bor edi, akun..."
- Siz emas, siz emas. U boshqa odam. - dedim-da, keta turib o'ylanib qoldim. So'ng birdan ichimdan hursand bo'lib ketdim. Qiyyqirib yuborgim keldi. "O'l-a. Pitirlab qolganini bularning. Hajviyaning kuchi ham mana shunda-da. Demak, nishonga tegibdi. Boplab yozganimga endi o'zim ham ishondim. O'lma, Komilov!..."
- Kechga yaqin, ish tugashidan sal oldinroq direktor chaqirtiribdi. Kabinetiga qisinibgina kirsam, u eshik oldida kutib olib qo'limni qisib ko'rishdi-da, o'tirishga taklif qildi. Bir zumda stoli ustidagi qog'ozlarni titkilagan, taxlagan bo'ldi, so'ng menga qarab:
- Xo'sh, Komilov. Kechagi komissiya ishlarining ko'rdimi? - dedi.
- Ha. Ko'rdi. Umuman ishlarimdan kamchilik topgani yo'q. Lekin qidirsa, tirmoq ostidan kir chiqaveradi-da. Kabinetning devorini chang bosibdi - antisanitariya deb ketishdi. Axir... - Men kecha dabdurustdan kasaba uyushma raisi boshchiligidagi idoramizdan birikkitasi kirib, mening ishlarimni taftish qilgani-yu, qildan qiyiq axtarishganini aytib tashlamoqchi edim, direktor stolni taqillatib, meni to'xtatdi.
- Xa-a-a. Ana shunaqa-da, o'rtoq Komilov, - dedi u birdan ko'zlari chaqchayib, ovozini bir parda ko'tarib: - Qidirsa kamchilik chiqadi. Mana, siz ham farishta emas ekansiz-ku... Shunday bo'lгach, nima qilasiz birga ishlaydiganlarga loy chaplab. Nima, ishxonamizda yaxshi odam kammi? Odam degan yaxshilikni ko'ra bilish kerak. Ana shular to'g'risida yozing. Nima qilasiz... Birdan badanim muzlab, anchagacha tilim kalimaga kelmay qoldi. Arang g'o'ldiradim:

- Axir... Bu, hajviya... Hikoya-ku... Umuman yozilgan. Gap egasini topadi. Kimga tegib ketgan bo'lsa, endi to'g'ri ishlaydi-da...
- Uka, - birdan u yana muloyimlashdi: - O'zingiz bilasiz, jamoamizza beshyzga yaqin odam bor. Men axir har birini poylab yurolmaymanku. Siz tushuning. Mana, kecha meni yuqoriga chaqirib, "sizda shunday odamlar bor ekan, ana, o'zlarindan birovi yozibdi deb, rosa "tuzlashdi. Endi gap bunday. Talant yaxshi narsa. Yozmang deya olmaymiz. Lekin yaxshi narsalar haqida yozing, yoki boshqa kasbdagi odamlar haqida yozing. Iloji bo'lsa, manzilini ham o'zgartirib... Har qalay bir jamoada ishlaymiz. Yaxshi emas. Qolaversa, mana o'zingizni ham tekshirganda kamchilik chiqibdi. Gapni to'g'ri tushuning-u...

U rosa bir yarim soat meni tergab "nasihat qildi. Goh muloyimlashib, goh dag'dag'a qilib gapirdi. Negadir tilim tanglayimga yopishib qolganday edi. Kabinetidan chiqar ekanman, so'rab qoldi:

- Ha, aytgancha, aslida, o'sha kim o'zi?
- Hech kim... - dedim yelkamni qisib: - Umuman olib yozganman. Axir, poraxo'rlar ko'p-ku?!
- U menga bir zum tikilib turib, birdan kulib yubordi:
- Vax-xax-xa-xa. Obbo, siz-ey. Buni qarang. Unda, o'zingiz ekansizda o'sha. A?! Xo'ppa semiz, tepakal... Voy, siz-ey. Hech mahal ham kishi o'zini yozadimi? Vax-xax-xa-xa... Xo'p boring. Men endi yuqoridagilarni o'zim tinchitaman. O'zini yozgan ekan deyman. Endi bunday ish qilmaydi deyman. Tushunarlimi? Shunday bo'lsin. Qadamingizni o'ylab bosing, a?! Boring... Direktor kabinetidan iylangan teriday shalpayib chiqdim. Qabulxonada oytovoqday bo'lib o'tirgan sekretar ayol qo'limga bir qog'oz tutqazdi.
- Komilov uka, mana sizga "padarka..."
- Nima bu?
- Nima bo'lardi. Buyruqdan ko'chirma-da. O'z ish joyiga sovuqqonlik bilan qaragani uchun ish haqqiningizdan 20 foiz jarima to'lash haqida. Oling.
- Ie. Nega endi? Birdaniga jarima? Avval ogohlantirmasdan-a?...
- Xay, xay, xay. Tinchimagan Komilov-ey. Majlislarda tortishaverib, olib bo'lгansiz-ku barisini, ogohlantirish ham, xayfsan ham qolmagan. Ehtiyoj bo'ling. Endigisida ishdan ketasiz. Ha, yozuvchi bo'may keting, ukam. Nima qilasiz o'z boshingizga g'alva orttirib, tushunmayman. Hamma qatori tinchginayurmaysizmi?!... Ammo-lekin boplab yozibsizda. Sizda talant bor. Kim edi o'sha qurib ketgur?...
- Kim bo'lardi?! O'zim-da. O'zim... - zarda bilan eshik tomon yurdim.
- Voy o'lmasam. Anovini qaranglar. O'zi emish. Xax-xax-xa-xa...

Sekretar ayolning qah-qahasi qulog'im tagida anchagacha jaranglab turdi.